



*O'zbek xalq dostonlari*

“SHARQ” NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK  
KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT — 2006

Aytuvchi: **Rahmatulla shoir Yusuf o'g'li**

Nashrga tayyorlovchilar:

**To'ra Mirzayev va Zubayda Husainova**

T a h r i r h a y ' a t i:

**Omonulla Yunusov (hay'at raisi), Ahror Ahmedov (hay'at raisi o'rinbosari), Mamatqul Jo'rayev, Erkin Malikov (hay'at kotibi), To'ra Mirzayev, Abiir Musoqulov, Muhammadali Qo'shmoqov, Shomirza Turdimov, Ibodulla Shoymardonov**

R a s s o m:

**Temur Sa'dullayev**

**Go'ro'g'li:** O'zbek xalq dostonlari / Aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o'g'li; Tahrir hay'ati: O. Yunusov, A. Ahmedov, M. Jo'rayev va boshq./ Rassom T. Sa'dulla. — T.: Sharq, 2006. — 448 b.

“Go'ro'g'li” turkumi dostonlari yuzga yaqin xilma-xil mazmundagi asarlarni o'zida birlashtirgan ulkan silsiladir. Xalq baxshilari bu turkumga kiruvchi dostonlarni sevib kuylab kelganlar. Ushbu jildga Rahmatulla shoir Yusuf o'g'lidan yozib olingan 27 doston kiritildi. Ularda afsonaviy xalq qahramonining tug'ilishi, uning bahodirona yoshligi, jasoratlarga to'la hayoti, ozodlik o'lkasi — Chambil shahrining bunyod etilishi, asrandi farzandlar — Hasanxon va Avazxonlarning Chambilga keltirilishi, ularning bahodirliklari turli-tuman sarguzashtli voqealar girdobida tasvirlanadi. Dostonlar qahramon va sevimli yor sadoqati, ota-ona va farzand burchi, birodarlik va do'stlik, ona yurtga muhabbat masalalaridan bahs etadi. Har bir doston badiiy mukammalligi va jozibadorligi bilan kitobxonni o'ziga jalb eta oladi.

**BBK 82.3(5U)**



GO'RO'G'LINING BOLALIGI





“O” tgan gapga salavot”, degan ekan. Endi Ravshan ko’r bechora o’lib, Go’ro’g’libekni yetim qoldirib qo’yamizmi. Gapning buyog’ini ham davom ettirib keta berayin, qani, Go’ro’g’libek nimalar qilar ekan.


Ana endi shuytib, Ahmadbek sardor Go’ro’g’libek jiyaning suyak egasi bo’lib, uyiga olib borib, xotini Xoljuvonoyga: “Mana bu mening tuqqan jiyanim, Xunxorda tug’ilib, enasi o’lib, kelgan. Endi bu biznikida turadi. Senga tayinlaganim — shuning aslo-aslo ko’nglini qoldirmaysan, sira-sira maytarilmasin. Agar buning ko’nglini qoldirguday bo’lsang, ikkimizning o’rtamizdagi do’stlikka g’ovg’a qo’ygan bo’lasan”, — deb tayinlab qo’ydi. Go’ro’g’libekka ham: “Jiyanim Go’ro’g’li, men bu Tukman yurtida Xunxorga vakil odamman. Juda ko’p ishlayman. Uyda bo’larimdan bo’lmasligim ko’p. Shu yangangning qoshida bo’lasan. Lekin bilib qo’yki, Rayhon arab degan bir saman bo’z otlı odam bor. U har zamon-har zamonda shu to’garaklarda ko’rinib qoladi. O’sha odamga ko’z-quloq bo’lib yur. Hech kim yo’q vaqtlarda hovliga yondashmasin. U bir yomon odam”, — deb tayinlab qo’ydi.

Shuytib, Go’ro’g’libek Ahmad sardornikida juda erka bola bo’lib o’sa berdi. “Aytgani o’rol, olgani halol”, edi. Boshqa turkmanlar ham Go’ro’g’libekka Ahmad sardorning jiyani deb hurmat yuzasidan qarar edi. Boshqaning Go’ro’g’libek bilan, Go’ro’g’libekning boshqa bilan ishi yo’q. Ola baytali halak, o’zi halak, har kuni yetaklab yurgani-yurgan edi.

Kunlardan bir kun ko’klam chog’i ola baytalini yetaklab Hovdak ko’lining yonida yursa, baytali damga kelgan ekan, ko’ldan bir yovvoyi ot chiqib, baytaliga chopib, yana qaytib suvga kirib ketdi. Shuytib, Go’ro’g’libekning baytali bo’g’oz bo’lib qoldi. Go’ro’g’libek bo’lsa, quvonib: “Endi baytalim menga ot tug’ib beradi”, — deb yurar edi. Kunlar, oylar o’tib, baytalning qulinlaydigan vaqti bo’lib qoldi. Go’ro’g’libek ham: “Endi baytalim ot tug’ib beradi”, — deb har doim ko’z-quloq bo’lib yuradigan bo’ldi. Bir kun bomdodda baytali qulunlabdi. Go’ro’g’libek qarasa, xuddi toziday bir narsa, badanda bitta ham tuki yo’q, chaqa, o’zi ham urg’ochi ekan. Go’ro’g’libekning birdan kayfi qochib, nash’asi uchib: “Men seni qachonlardan beri bir ot tug’ib beradi, deb yursam, tug’ib bergan narsang shumi. Tag’i bu ham bo’lsa urg’ochi”, — deb achchiq ustida baytalini kaltak bilan bir urib o’ldirib qo’ydi. Bir pilla qarasa, baytali o’lib qolibdi. Endi Go’ro’g’libekning achchig’i tarqab: “He, jonivor toziginam”, — deb haligi toziga o’xshagan chaqa toyni yangasidan so’rab olib sut berib, bir kigizginaning ustida yotqazib, tarbiyat qilaberdi.

Oradan ko’p vaqtlar o’tib, toyga tuk chiqib, yura oladigan bo’ldi-qoldi. Undan keyin Go’ro’g’libekning ish ermagi shu toy bo’lib qoldi. Toy miskin o’sdi. G’unondan do’non bo’ldi, oylar, yillar o’tib bir saman bo’z bo’lib yetishdi. Shu vaqtgacha Go’ro’g’li ham o’n beshga kirdi. Tog’asi aytgan haligi Rayhon arab degan odam ham har zamon, har zamonlarda do’ngdan boshmoqlab Ahmad sardorning hovlisiga qarab-qarab, yana yo’q bo’lib ketar edi. Go’ro’g’libek: “Endi baytalim damga kelsa, bir yaxshi otga choptirsam, undan keyin baytalim menga bir erkak toy tug’ib bersa, ot qilib olar edim”, — deb yurar edi. Shu ko’klam Go’ro’g’libekning aytgani bo’lib, baytali damga keldi. Lekin Go’ro’g’libek har qanday otni baytaliga chop-tirishni xohlamay, bir yaxshi ot bo’lsa, deb yurib edi. Shu kunlarda Ahmad sardor bir yoqqa ketgan. Ovuлда ham yolchitib odam qolmagan edi. Endi so’zni Rayhon arabdan eshiting.

Rayhon arab bergi arablar eliga podsho edi, o’zi juda sayis otboz edi. Bir yaxshi arabi baytalga damga kelgan vaqtida dengiz tulporini choptirib, bir xonazod tulpor tug’dirib olgan edi. Rayhon arabning o’zi nihoyatda xotinboz bachchag’ar edi. “Shunday tulporim bo’lgandan keyin olamda tengi yo’q qizni izlab topish menga oson”, — deb bekor vaqtlari dunyoning to’rt tarafiga sayohat qilib ketar edi. Shunday qilib, bir martaba turkman yurtiga kelib qolib, Xoljuvonoyga ko’zi tushib, juda yomon xushtor bo’lgan edi. O’zi ham xuddi shu vaqtlarda yer yuzida Xoljuvonoyday suluv qiz yo’q edi. Rayhon arab odamlardan: “Bu qizning boshi bo’shmi?” deb so’rganida, odamlar: “Yaqinda bu qizning to’yi bo’ladi. Bu qizni turkman elining og’asi Ahmad sardor oladi”, — degan edi. Rayhon arab qizni sahal oldin ko’rmaganiga ming-minglab



pushaymon qilib, qo'lg'a kiritishning ilojini topmay, har zamonlarda qirdan bir boshmoqlab, Xoljuvonoyini uzoqdan bir ko'rib ketar edi. Shuytib, Rayhon arab Xoljuvonoyning hasratini yeb yurar edi. Ana endi bugun Rayhon arab ovulda yolchitib odam yo'g'ligini bilib, otini haydab, Ahmad sardor hovlisining yonboshiga kelib qolganida Rayhon arabni Go'ro'g'libek ko'rib qolib: "Ha, o'g'ri, bu yerda nima qilib yuribsan. Jo'na bu yerdan, enag'ar", — deb Rayhon arabga qarab, bir so'z dedi:

Chekkasin jun bosgan qanday balosan,  
Bu yerlarda yurib nima qilasan,  
O'g'rimisan, kazzobmisan, enag'ar,  
Jo'nab qol yo'lingga, yo'qsa o'lasan.

G'ayratim kelganda qaynab jo'shaman,  
Har nechuk toshingman ko'ksing teshaman,  
Dah desam, tog'lardan haklab oshaman,  
Kim bo'lsang ham, darrov jo'na bu yerdan.

Dev ham tiklay olmas mening ko'zima,  
Oyoq osti qilgum, kelsang, o'zim-a,  
Joning kerak bo'lsa, qaytgin izinga,  
Kim bo'lsang ham, darrov jo'na bu yerdan.

Ko'zga ilmaysanmi meni bola, deb.  
Aldamoqchidirsan aqli chala, deb,  
Talon solib ketay birato'la, deb,  
Kim bo'lsang ham, darrov jo'na bu yerdan.

Bu yerlarning baland yog'i jo'nagar,  
Xanjar ursa, oq badandan qon oqar,

Chalqayma oldimda, o'g'ri enag'ar,  
Kim bo'lsang ham, darrov jo'na bu yerdan.

Quloq sol, haromi, aytgan so'zima,  
Tushdingmi, bachchag'ar, mening izima,  
Bezrayib boqa berma yuzima,  
Kim bo'lsang ham, darrov jo'na bu yerdan.

Ishonma, haromi, mingan otingga,  
Quvalab o'tkazay mamlakatingga,  
Obborib topshiray ulug' zotingga,  
Kim bo'lsang ham, darrov jo'na yurtingga.

Har zamonda boshmoqlaysan, ko'raman.  
Ko'pdan beri seni bilib yuraman,  
Tura bersang kaltak bilan uraman,  
Kim bo'lsang ham, darrov jo'na bu yerdan.

Go'ro'g'libek nortuyaday g'arqirar,  
Xanjar ursam qizil qoning sharqirar,  
Sachirab har yoqqa oqib tirqirar,  
Kim bo'lsang ham, darrov jo'na bu yerdan.

Shunday pallada ko'pni ko'rgan Rayhon arabning Go'ro'g'libekning bunday gaplariga achchig'i kelib o'tiradimi? Quv bachchag'ar Go'ro'g'liga sir bermay: "Hov, uka, u qirdan boshmoqlab yuradigan odam mendan boshqa odam. Bir yomon ayyor, har narsaga tayyor odam, men bo'lsam, bir yo'l o'tkinchiman. Indamasang, o'tib ketaman, indasang, qaytib ketaman", — deb o'ziga suv yugurtmay, Rayhon arab Go'ro'g'libekka qarab, uzangiga oyog'ini tirab, mo'ylabini burab, bir so'z dedi:

Gapirgan gaplarim uyqash, ulama.  
Tilla doyra chalgan qo'llar tolama,  
Ko'cha bog'dan o'tkinchiman, bek bachcha,  
Bekbachchalar shunday zolim bo'lama?

Meni deb boshqani ko'zing ko'rgandi[r],  
Biror o'g'ri qirdan tiklab turgandi[r],  
Bekbachchalar shunday do'qlab berama,  
O'z tinchida ko'cha bog'man yurgandi.

Bekzodalar shoyi kiysin, shaylansin,  
Har kim g'anim bo'lsa, qo'li boylansin,  
Ursang agar bir faqirman, bekbachcha,  
Senday uldan aziz jonim aylansin.

Bahor bo'lsa, ko'lda o'rdak suzadi,  
O'ylab ko'rsang, deganing menga izzadi[r],  
Bu odating qila bersang, bekbachcha,  
O'tkinchilar ko'chabog'dan bezadi.

Indama, jon uka, o'tib ketaman,  
Manzilinga o'z chog'imda yetaman.  
Qahr aylasang, men bir faqir yo'lovchi,  
Boz orqamga qaytmay nima etaman.

Dala-dasht to'ladir rayhon guliga,  
Sir aytgan sanamning tushlar qo'liga,  
Javob ber faqirga endi, bekbachcha,  
O'z vaqtida ketsin bozor yo'liga.



Shunda Go‘ro‘g‘libek Rayhon arabdan bu so‘zni eshitdi. “Aldamoqqa bola yaxshi” degan. “Bu qirdan boshmoqlaydigan Rayhon arab emas ekan-da. Odam odamga, ot otga o‘xshaydi-da. Bu bir yo‘l o‘tkinchi bo‘lsa, buni men bekorga Rayhon arab, deb o‘ylab, xafa qilib qo‘ydim-ov. Lekin zang‘arning oti juda suluv ot ekan. O‘zi ham yulduzni ko‘zlaydi. Otini so‘rasam, baytalimga choptirmasmikan”, — deb Go‘ro‘g‘libek Rayhon arabga qarab, shu so‘zni aytdi:

Yarashiqqa zarrin po‘ta urayman,  
Ko‘rganimni yaxshilikka yo‘rayman,  
Bu so‘zman, ot mingan ayo yo‘lovchi,  
Shu otingni baytalimga so‘rayman.

Shu oting demayin behisht pirog‘i,  
Falakda yulduzni ko‘zlar dimog‘i,  
Chaqmoqqa mengzaydi ko‘zin chirog‘i,  
Shu otingni baytalimga so‘rayman.

Nosqovoq o‘xshaydi kumush qoptirsang,  
Talabgor odamning dilin toptirsang,  
Bo‘z tulporing bo‘z biyamga choptirsang,  
Bir martaga baytalimga so‘rayman.

Minganing haddili suluv ot ekan,  
Bo‘z samandan kelgan tulporzod ekan,  
Sini boshqa, bo‘yni uzun, yot ekan,  
Shu otingni baytalimga so‘rayman.

Shu kunlarda biyam damga kelibdi,  
Bo‘g‘oz bo‘lar vaqti yetib to‘libdi,  
Shu bo‘z samaningga tolib bo‘libdi,  
Bir martaga qo‘yishingni so‘rayman.

Go‘ro‘g‘li deydilar, o‘zim bekdoda,  
Kiyganim ustimda harir ozoda,  
Bir fasil tushib tur bo‘lib piyoda,  
Shu otingni baytalimga so‘rayman.

Rayhon arab Go‘ro‘g‘libekning bu so‘zini eshitib, baytaliga Rayhon arabning otini qo‘ydirishga juda ishqiboz ekanini bilib, hozir Go‘ro‘g‘libekni aldash payti ekanini qo‘ldan bermay, Go‘ro‘g‘libekka qarab: “Otimni baytalingga, mayli, bir qo‘yayin, undan avval sen mening bir tashnaligimni qondir”, — deb bu so‘zni aytdi:

Mayli, qo‘yay baytalingga otimni,  
Avval aytganimni qilsang, Go‘ro‘g‘li,  
Uzoq yo‘ldan kelgan chanqoq, tashnaman,  
Yaxob suvdan serob etsang, Go‘ro‘g‘li.

Yangangga buyursang, xizmatga tursa,  
Bir shokosa to‘la suv olib bersa,  
Shundan keyin beray, mayli, otimni,  
Tashnalikdan serob bo‘lsam, Go‘ro‘g‘li.

Yangangga buyursang, dalaga chiqsa,  
Qo‘lidan suv bersa, labim qoniqsa,  
Shundan keyin beray mayli otimni,  
Aytganingga ko‘nib so‘ngra, Go‘ro‘g‘li.

Dashtda uchratasan rayhon gulini,  
Yangang kosa tutib, cho‘zsa qo‘lini,  
Shundan keyin, mayli, beray otimni,  
Suv ichib olgandan keyin, Go‘ro‘g‘li.

Ana shunda Go‘ro‘g‘libek Rayhon arabdan bu so‘zni eshitib: “Bu zang‘ar yangamni suv olib bersin, dedi. O‘sha tog‘am aytgan Rayhon arab yo shumikan. Lekin zang‘arning oti juda suluv ekan. Shu otini baytalimga choptirib olsam”, — deb o‘ylab, Rayhon arabga: “Sen zang‘ar Rayhon arab bo‘lib, meni aldab, tag‘in yangamni olib qochib ketmagin. Avval otingni baytalimga choptir. Keyin men yangamga aytib, senga suv oldirib bergizaman”, — desa, Rayhon arabning Xoljuvonga toza hushlari og‘ib, o‘lib borayotib: “Uka, avval sen yangangga aytib, menga suv oldirib bergizsang, keyin otimni baytalingga choptiraman”, — dedi. Go‘ro‘g‘libek bo‘lsa, Rayhon arabning otiga juda hushlari og‘ib, nima bo‘lsa ham baytaliga choptirib qolmoqchi, yana: “Mabodo bu Rayhon arab bo‘lsa, meni aldab yangamni olib qochib ketami”, — deb ham qo‘yadi. Ammo Rayhon arabning otini baytaliga choptira olmay qolishdan yana xavf qiladi. Rayhon arab quv zang‘ar hamma gapni bilib turibdi. Shu ahvolda Rayhon arab bilan Go‘ro‘g‘li bir sulhga kelolmagandan keyin Go‘ro‘g‘libekka Rayhon arab: “Bo‘lmasa, men ham otimni baytalingga qo‘yaberay, sen ham yangangga suv oldirib beraber. Har ikkimizning maqsadimiz bir vaqtda

hosil bo'lsin", — dedi. Go'ro'g'libek rozi bo'lib, yangasiga bir kosa suv olib berdirmakka ichkariga kirib ketdi. Rayhon arab: "Endi bu bolani arbovima tushirdim-ov", — deb aylanib, hovliga kirib, supadan ichkariga rav bo'lib turdi.

Go'ro'g'libek ichkariga kirib, Xoljuvon yangasiga: "Yangajon, shu kelgan odamga bir kosa suv olib ber", — deb iltimos qilsa, yangasi: "U odam — dushman. Agar men suv olib bersam, keyin mendan ayrilib qolasan", — deb ko'nmay oyoq tirab oldi. Go'ro'g'libek ham yangasiga: "Yo'q, yanga, u dushman emas, bir yo'l o'tkinchi. Men uning otiga ishqiboz bo'lib, baytalinga choptiraman, deb uni o'zim qaytarib keldim. Yangang bir kosa suv bersa, otimni baytalinga choptiraman, dedi. Yangajon, bo'lmaydi, bir kosa suv olib berasan. Haddi senga indashga yetmaydi. U mendan qo'rqadi. Hozirginaning o'zida uni do'qlab qo'rqatdim. Bu yog'idan xotirjam bo'l, o'zim bor-ku", — dey berdi. Xoljuvonoy Ahmad sardorning: "Bu bolaning ra'yini hech qaytarma", — deb tayinlaganini eslab, noiloj bir kosa suvni olib, yengini tishlab tortinib, tashqariga chiqdi. Rayhon arabning ko'zi Xoljuvonoyning qaddu qomatiga tushib, ichi shuvillab, bag'ri guvillab, ko'zi chaqchayib, og'zi aqchayib, toza silasi qaytib, og'zining so'lagi qurib, nima bo'lganini bilmay qolib, Go'ro'g'liga: "Tut baytalingni, lekin men o'zim otdan tushmayman", — deb yubordi. Go'ro'g'libek baytalini tutdi. Rayhon arab otiga minib turib, otini baytalga qo'ydi. Go'ro'g'libek va'daga muvofiq: "Yanga, hozir kosani bu odamga uzat", — dedi. Xoljuvon kosani tortinib, Rayhon arabga tutdi. Rayhon arabning ko'zlari o'ynab ketdi. Darrov kosani qamchisi bilan bir urib, Xoljuvonoyning bilagidan mahkam ushlab, bir silkib otining sag'risiga olib: "Ey, ahmoq Go'ro'g'li, qoyil bo'ldingmi endi", — deb haydab ketdi. Go'ro'g'li darrov kallapo'shini to'rt buklab: "Nima bo'lsa ham, endi baytalim to'xtamay qolmasin", — deb buklangan kallapo'shini baytalning dumi ostiga tiqib, bir qo'lini kallapo'shdan qo'ymay, baytaliga minib, bir qo'li bilan haydab, Rayhon arabning orqasidan tushdi. Bir pilla baytal jipillab Rayhon arabga yaqinlashib borib qoldi. Rayhon arab arqayin bo'lib ketayotgan edi. Qarasa, Go'ro'g'lining baytali juda yomon jimiyib quvib kelayapti. Rayhon arab ham endi arqayin bo'lmay, katta bir jarga haydab, jordan otini ding etkizib, sakratib o'tib ketdi. Shu yerda Go'ro'g'libekning baytali baytallik qilib, jordan sakray olmay qoldi. Shunda Go'ro'g'libek Rayhon arabning orqasidan qichqirib: "Ukag'ar Rayhon arab, meni aldading. Arqayin bo'lma, har pilla sendan o'chimni olaman", — deb shu so'zni aytdi:

Aldab ketding bugun meni, ukag'ar,  
Shu marta yuttirdim senga, enag'ar,  
Aldading, arbading, aqlim oldirding,  
Ko'kragi jun bosgan, ko'zlari chag'ir.

Ko'p quvonma, hali bir kun ko'rasan,  
Arabda halicha davron surasan,  
Qoshiq boshingga tekkan pilla, enag'ar,  
Ko'zlaring mitillab navbat berasan.

Ostingda bedoving tulpor, o'ynoqi,  
Xazinangda minglab tuya mo'ynoqi,  
Navbat kelib bir kun o'tar joningdan,  
Tizillab turkmanning bergan qiynog'i.

Otingga qaratib ko'zim chaldirding,  
Aldading, arbading, aqlim oldirding,  
Bo'z samaning bedov ekan, ukag'ar,  
Haqlab ketding, meni orqa qoldirding.

Sening Rayhon arabliging bilmadim,  
Yangam qaytarganin qabul qilmadim,  
Shu martaga yutding meni, ukag'ar,  
Hay attang-a, senga ustun bo'lmadim.

Shoshma, jonim bo'lsa bunda omonda,  
Toparman makoning bo'lsa qayonda,  
Go'ro'g'liga navbat kelsa ko'rasan,  
Xoh armanda bo'lsa, xohi Eronda.

Go'ro'g'libek og'zi charchaganicha Rayhon arabning orqasidan so'kib-so'kib, nochor jordan nariga o'ta olmay, orqaga qaytdi. Oradan bir-ikki kun o'tib, Ahmad sardor kelib, Go'ro'g'lidan yangasini so'radi. Shunda Go'ro'g'libekning ko'ngli buzilib, Rayhon arabni so'kib, yig'lab, bir so'z dedi:

Bilmay qoldim, ilintirdi damiga,  
Juda yomon ayyor ekan, enag'ar.  
Rayhon arab kelib ko'zim chalg'itdi,  
Go'l debman u, hushyor ekan enag'ar.

Yangamni tashladi otning soniga,  
Parvo ham qilmadi yig'laganiga,  
Changalin botirdi qorday taniga,  
Bir xizzang, ko'zi g'ar ekan enag'ar.

Mingashtirib Xoljuvonni sirtiga,  
Haydab ketdi otin, boqmay ortiga,

Men yig'layman oriyatning dardiga,  
Ko'zi ola chag'ir ekan enag'ar.


Bo'z samani chopsa, yulduzday oqar,  
Suluvlik simbati odamga yoqar,  
Ko'zlari chaqmoqday alanglab boqar,  
Mingan oti tulpor ekan enag'ar.

Go'ro'g'li yetolmay, qop ketdi dog'da,  
Yo'rtanglab asta-asta undan yiroqda,  
Ayta bersam so'zim turmas kurakda,  
Haddili hiylagar ekan enag'ar.

Ahmad sardor Go'ro'g'li jiyaniidan bu so'zlarni eshitib, juda ko'p vaqt indamay, g'amgin bo'lib qolib, keyin Go'ro'g'libekka: "Jiyanim, bu gaplarni esingdan chiqarib yuborib, baytalingni boqib, dimog'ingni choq qilib yura ber. Menga Xoljuvon bo'lmasa, boshqasi, pulga topiladigan xotin-da", — deb dildorlik berdi. Go'ro'g'libek bo'lsa, picha kattarib: "Bir otli bo'lib olay, undan keyin ko'raman", — deb Rayhon arabni sirtidan so'kib, baytalini minib, bo'zga chiqib ketdi.

Ana shuytib baytali halak, Go'ro'g'li halak, shu ahvolda oylar o'tibdi. Bir kun Go'ro'g'libekning baytali bir toziday chaqa, modarzod narsani tug'ib tashladi. Go'ro'g'libek buni ko'rib kayfi qochib, nash'asi uchib, juda achchig'lanib: "Men seni shunday narsa tug'sin, deb asrab, azayishlab yuribmidim", — deb bo'z saman baytalini kaltak bilan bir urib o'ldirib qo'ydi. Bir pilla achchig'i tarqalib qarasa, baytali o'lib qolibdi. "He, attang", — deb haligi toziga o'xshagan junsiz narsaning erkak ekaniga umid bilan biroz vaqt sut berib yurganidan keyin ko'rsa, asta-sekin jun chiqib, haligi toziga o'xshaganliklari ketib, oyoqlanib, ko'kkina toy bo'lib qoldi. Go'ro'g'libek quvonib: "Endi buni ot qilib olaman", — deb toyga mehr qo'yib, quyunday ildam bo'lsin, deb quyoning sutini, echkiday sakrasin, deb echkining sutini, bo'riday olg'ir bo'lsin, deb bo'rining sutini, tulkiday ayyor bo'lsin, deb tulkining sutini, tuyaday chidamli bo'lsin, deb tuyaning sutini, o'z nasli otday suluv bo'lsin, deb otning sutini berib, toyini boqib o'tirib, yil oshirib, katta toy qilib, goh minib, goh tushib, toy novchatob, baland qomat bo'lganligi uchun toyining ismini G'iro't qo'yib olgan edi. G'iro't uch yoshga to'lib, g'o'non bo'lgandan keyin Go'ro'g'li Rayhon arabga borish qasdida jordan irg'ib o'tadigan qilaman, deb avval ariqdan irg'itib, so'ng jarlardan irg'itib, ipaklardan arqon eshib sudratib, mashq qildirib yurar edi.

Shuytib, bir kuni G'iro'tni minib, Go'ro'g'libek Yovmitning xonaqosining oldidan o'tayotib, yoshligida shu yerda Ravshan ko'r bilan topishib, otasining shu yerda vafot etganini eslab o'tib borayotsa, xonaqohga ko'p qalandarlar qo'ngan ekan. Ular Go'ro'g'libekni ko'rib qolib: "Hoy, Go'ro'g'libek, bu yoqqa keling, bir gap bor", — deb chaqirishib qoldilar. Go'ro'g'libek qalandalarning chaqirganiga achchig'lanib: "Gaplaring besh-olti chaqa tanga ber, deb aytish-da, undan boshqa nima gaplaring bo'lar edi", — dedi. Shunda qalandalarning biri Go'ro'g'libekka qarab: "Yo'q, boshqa bir gap bor. Bizlar pul so'rab, gadoychilik qiladigan qalandalardan emasmiz. Faqat senga aytadigan maxsus bir gapimiz bor. Sen supadan bir balandga chiq. Otdan tush. Otingni birovimiz ushlab turamiz. Bizlarning sharofatimiz bilan sen ham xonaqohga bir kir", — deb dim qo'ymagandan keyin Go'ro'g'libek G'iro'tdan tushib, G'iro'tning jilovidan ushlab turgan holda supaga chiqib: "Mana, chiqdim. Nima gaplaring bo'lsa, aytinglar qani", — desa, qalandarlar: "Seni shu turkman eliga xon qilib ko'tarmoqchimiz. Sen bizlarni qalandar, deb o'ylama. Bizlar el oqsoqollari bo'lamiz. Qani, ichkariga marhamat qil. Otingni birovimiz ushlab turamiz, — dey berdi. Go'ro'g'libek qalandalarga: "Maboda, sizlar o'g'ri bo'lib, meni aldab ichkariga kirgizib, otimni o'g'irlab ketmanglar", — desa, qalandarlar: "Yo'q, bizlar o'g'ri emasmiz. Agar ishonmasang, mana ayvonning burchagiga yur, oting ko'z oldingda. Faqat senga podsholikning ko'ylagini kiydirib qo'yamiz. Boshqa hech gap yo'q. Shu ko'ylakni kiyding — turkman eliga xon bo'lding hisob", — deb Go'ro'g'lini qo'yarda-qo'ymay, xonaqoh ayvonining burchagiga olib borishib, o'sha aytgan ko'ylakni kiydirmakchi bo'la berdi. Go'ro'g'libek: "Otimning yo'luga ko'ndalang bo'la bermanglar. Men hali sizlarga ishongim kelmayapti", —





dedi. Qalandarlar G'irotdan Go'ro'g'libekning orasini ochiq qilib qo'yib: "Ana endi ko'ylakni kiyib ol," — deyisha berdi. Go'ro'g'libek: "Bo'lmasa, otimni o'sha joyga bog'lab qo'yinglar. Men ko'ylakni kiyib olguncha, otimning oldida hech kim bo'lmasin", — dedi. Qalandarlar G'irotdan joyiga bog'lab, o'zlari G'irotdan yiroqlashdilar. Go'ro'g'libek otiga juda kashal bo'lib: "Ko'ylakni beringlar, tez kiyib olay", — deb ko'ylakni qalandalarning qo'lidan ola solib, abil-g'ubil kiya solib, ko'ylakning yoqasidan boshini chiqara solib qarasa, G'irko'k oti yo'q, qalandarlar ham yo'q. Juda kayfi uchib ketganidan Go'ro'g'libek kiygan ko'ylagini yirtib, bo'lak-bo'lak qilib tashlab, otini izlab, endi sarson bo'lmoqni ko'ring.

Izlaydi-izlaydi, har zamonda kelib tog'asinikidan bir tandir, ikki tandir non olib, yana izlab ketadi. Ammo otning na izini va na daragini topolmay, kayfi uchib, yana tog'asinikiga qaytadi. Shu ahvolda Go'ro'g'libekning izlamagan yeri qolmay, oradan bir yil o'tib ketdi. Go'ro'g'libek endi o'n to'qqizga kirgan. Kun ham oxir tirama' bo'lib kelayotir. G'irotdan bo'lsa, hali ham darak yo'q. Bir marta eng uzoqlikdagi bir tog'ni Go'ro'g'libek nishonga olib, "Shu tog'ni ham bir izlay, undan keyin ham topmasam, toza umidimni uzaman", — deb o'sha toqqa qarab yo'l olib, piyoda yura-yura tog'ning tubiga yetib bordi. Endi Og'a Yunus va Misqol parilardan eshitsangiz.

Go'ro'g'liga xushtor bo'lib, ularning ruhi shu turkman elida aylanib yurar edi. Ammo Go'ro'g'libek hech nimadan xabarsiz, G'irko'k otini izlamakdan boshqa narsani bilmas edi. Shu tog'ning bag'rida, bir kamarning bulog'ida Yunus-Misqol parilarning ruhlari kir yuvib o'tirgan suratda Go'ro'g'libekning ko'ziga ko'rindi, Go'ro'g'libek ulardan: "Shu yerlardan g'o'nondan do'nonga chiqma bir ko'k toy o'tdimi?" — deb so'rab, bir so'z dedi:

Buloqning boshida turgan ayollar,  
Shu yerlardan bir g'o'non toy o'tdimi,  
O'tgan bo'lsa, bizga xabar beringlar,  
Shu yerlarda biror kimsa o'tdimi?

O'tgan bo'lsa, suyunchisin beraman,  
Yovmitga qaytarib olib boraman,  
Bilsanglar, aytinglar, turgan ayollar,  
Ko'pdan beri yo'qchi bo'lib yuraman,  
Shu yerlardan bir g'o'non toy o'tdimi?

Bu tog'lar elat bor yerdan kanora<sup>2</sup>  
Bundan oshsa qaysi yurtga enara,  
Aytinglar, kir yuvib turgan ayollar,  
Otim izlab juda bo'ldim ovora,  
Shu yerlardan bir g'o'non toy o'tdimi?

Kezib keldim dasht-u sahro, cho'lini,  
Axtarib topmadim dengiz, ko'lini,  
Aytinglar, kir yuvib turgan ayollar,  
Qisqa aylang izlovchining yo'lini,  
Shu yerlardan bir g'o'non toy o'tdimi?

Ko'k tusli, uzun dum, bo'yni ingichka,  
Zo'r o'mgan, buyuri kerishgan ingichka,  
Eshitinglar, kir yuvib turgan ayollar,  
Topsam Yovmit qaytib boray shu kecha,  
Shu yerlardan bir g'o'non toy o'tdimi?

Ravshanko'r bolasi otim Go'ro'g'li,  
Tog'am Ahmad sardor turkmanda tug'li,  
Men o'zim hech kimdan qo'rqmas qoruvli,  
Aytinglar, kir yuvib turgan ayollar,  
Shu yerlardan bir g'o'non toy o'tdimi?

Shunda Yunus, Misqol parilarning ruhi qoqinib buralib, Go'ro'g'libekka qarab, biqinini tirab, qoshini uchirib, xuddi bir-biriga o'xshab, bir kishini ikki kishi qilib qo'yganday bo'lib, kulib noz qilib: "Ot yo'qotgan yaxshi yigit, otningni el bor joydan so'ra-da. Ot bu odamsiz tog'larda nima qilsin", — deb Yunus, Misqol parilarning ruhi shu so'zni aytdi:

Ey, ot izlab yurgan go'zal bo'z bola,  
Jaynagan jamoling misli gul-lola,  
Yo magar aqlingdir hali ko'p chala,  
Odamsiz joylarda otningni qilsin?

Kishi yurtdan uzoqlashsa, yot bo'lar,  
Ko'p piyoda yurma, poying lat bo'lar,  
Qayerda el bo'lsa, shunda ot bo'lar,  
Odamsiz joylarda otningni qilsin?

<sup>1</sup> Kuz.

<sup>2</sup> Chet, chegara.

Yo bo'lmasa oting qilib bahona,  
O'ynashay deb kelgandirsan buyona,  
Bo'layin bo'yingdan mudom parvona,  
Odamsiz joylarda oting na qilsin?

Tushingda bizlarni magar ko'rdingmi,  
To'shagingdan sermalanib turdingmi,  
Ko'rib turib chindan ko'ngil berdingmi,  
Odamsiz joylarda oting na qilsin?

Bizning buloq cho'milmoqqa qulaymi,  
Qulay bo'lsa sizni shumg'ib solmaymi,  
Moboda ko'nglingiz bizni tilaymi,  
Odamsiz joylarda oting na qilsin?

Oynadan tiniqdir pari jamoli,  
Pari jamolining bo'lmas zavoli,  
Bu so'zlar chinmi yo magar xayolmi,  
Odamsiz joylarda oting na qilsin?

Ayol dema, bizlar hali gulg'uncha,  
Hech kimni ko'rmadik to sen kelguncha,  
Xo'p desang, xo'pdirmiz, boz yana shuncha,  
Odamsiz joylarda oting na qilsin?

Yunus, Misqol yo'l uzra kir yuvarlar,  
Bir qara-chi, shavqing yana qancha bor.  
Qancha suluv ko'rsang, biz ham shuncha bor,  
Odamsiz joylarda oting na qilsin?

Go'ro'g'libek buloqda kir yuvgan bo'lib ko'ringan Yunus, Misqol parilarning ruhidan bunday hazil so'zlarni eshitib, o'zidan o'zi ularga Go'ro'g'libekning hushlari oqqanday bo'lib: "Bular nega menga bunday deb hazil so'z qotadi", — deb avvalidan ayol jinsining isi yoqmagan Go'ro'g'liga bir marta parilarning so'zi qulog'iga yoqqanday bo'lib, u yerdan o'tib ketdi. Shu kuni gashti peshinda tog'ning ustiga chiqib o'tirib, naryoqdagi kamarlarni birma-bir ko'zdan kechirib qarab o'tirsa, bir pilla bir kamardan bir do'lanaga bog'log'lik turgan bir otni ko'rib qolib, rangiga zehn solib qarasa, ot ko'k, yashil, g'irko'k, G'irko'kka o'xshagan bir ot. "Agar G'irko'k bo'lsa, shuncha mehnatim kuymagan bo'ladi. Qani, bir borib ko'raychi", — deb asta-asta o'sha kamarga borib ko'rsa, o'zining G'iroti do'lonaga bog'log'liq turibdi. Hech odamzodning daragi yo'q. Lekin biroz o'sibdi. Otning ustida egar-abzal, boshida no'xta, yugan. "E, jonivorgina G'irko'kim", — deb do'lonadan yechib olib, minib, tog'dan tushib qaytib kela berdi. Kun ham asr bo'lay deb qolgan bir pilla tog'ning boshidan birov: "Ha, bola, to'xta. Otni qayoqqa olib ketayapsan?" — dedi. Go'ro'g'libek: "Kim bo'lsa ham kelsin qani", — deb to'xtab turdi. Bir pilla qari chol boboy yetib kela solib, G'irotning jilovidan ola ketdi. Go'ro'g'libek cholga: "Nomard o'g'ri, otda nima haqing bor? Buni yo'qotib, bir yildan beri izlab yuribman. Yana meniki deysan-a", — desa, chol boboy Go'ro'g'libekka qarab: "Noma'qulni yema, ot meniki. Men buni sotib olganman. Qani, darrov tushib jo'nab qol", — dedi. Go'ro'g'libek chol boboyga: "Sen noma'qulning nonini yebsan. Bo'lmasa, egar, abzali seni-ki chiqar, ot meniki, ko'p tarmashma. Endi kallangga bir mushtlayman, o'lasan — qolasan", — dedi. "Shundaymi hali, hali ham zo'rlikmi, otni ber. Bo'lmasa, kurashari qilamiz. Kim yiqilsa, otdan umidini uzsin", — deb Go'ro'g'libekka qarab, chol boboy bir so'z dedi:

Haq bo'lsang, da'vongda agar haq bo'lsang,  
Mayli ol shu otni meni yiqolsang,  
Bordi-yu yiqilsang, ko'rgin o'zingdan,  
Undan keyin ot bo'ladi bizniki.

Shu gaplaring, agar sening rost bo'lsa,  
Kurash tutsak, kuchim sendan past bo'lsa,  
Bordi-yu yiqilsang, ko'rgin o'zingdan,  
Undan keyin ot bo'ladi bizniki.

Ko'nasanmi bola shunday garovga,  
Chikka aylab meni, bo'lolsang tovka,  
Bordi-yu yiqilsang, ko'rgin o'zingdan,  
Undan keyin ot bo'ladi bizniki.

Bilaging shimarib, kuching ketirsang,  
Yiqitib, yelkamni yerga yetkirsang,  
Bordi-yu yiqilsang, ko'rgin o'zingdan,  
Undan keyin ot bo'ladi bizniki.

Kelgin, bola, qo'l ushlabib ko'raylik,  
Yengganimiz cholqa qilib urayik,  
Bordi-yu yiqilsang, ko'rgin o'zingdan,  
Undan keyin ot bo'ladi bizniki.

Bu yer Er Xizirning tog'i bo'ladi,  
Kim yiqsa, shu otni yutib oladi,  
Bordi-yu yiqilsang, ko'rgin o'zingdan,  
Undan keyin ot bo'ladi bizniki.

Ana shunda Go'ro'g'libek chol boboydan bu so'zni eshitib: "Bu qulay bo'ldi, ardisari bu o'lasi cholni yiqitaman, G'irotimni toza o'zimmiki qilib olib ketaman", — deb G'irotidan tushib: "Mana bo'lmasa, yoqama-yoqasiga kurashasanmi yoki qo'yama-qo'ltig'iga kurashasanmi?" — dedi. Chol bobo: "Qandayiga bo'lsa ham kurasha beraman", — dedi. Ko'nglida: "Bir qisib bu cholning qobirg'asini sindirib yuboray", — deb qo'ydi.

Shuytib, Go'ro'g'libek boboy bilan kurashib qolibdi. Chol boboy shirp etkizib Go'ro'g'lini yiqitib: "Qani, endi otni bizga berasan", — desa, Go'ro'g'libek: "Yo'q, bobo, kurashimiz it yiqilish bo'ldi, boshqavotdan kurashamiz", — dedi. Chol boboy: "Ha, yiqilgan kurashga to'ymas, deydi. Mayli, qancha kurashsang, kurasha beraman", — dedi. Go'ro'g'libek: "Shu marta bir chalim olib ko'raman", — deb chol boboy bilan yana kurashib qoldi. Chol boboy yana Go'ro'g'libekni ko'tarib yerga bir urib: "Qanday, endi ko'nasanmi", — dedi. Go'ro'g'libek yana toqoshovlik qilib: "Sen bu marta ham g'irrom yiqding. Yana boshqavotdan kurashaman", — dedi. Shunda chol boboy: "Uch, uchdan keyin puch, degan. Bola, bilib qo'y, shu martaba ham yiqilsang, otni olib ketaman", — dedi. Go'ro'g'libek: "Bu martaba men seni yiqitaman", — deb bor kuchini to'plab, chol boboy bilan yana kurashdi, chol boboy yana Go'ro'g'libekni ko'tarib yerga bir urib: "Ana endi seni halol yiqqanimga ko'narsan", — deb G'irotni yetaklab, toqqa qaytmoqchi bo'la berdi. Shunda Go'ro'g'libek boboyga kuchi yetmasligini bilib: "G'irotimni berib keting", — deb boboyga yalinib, bir so'z dedi:

G'o'ch bilakli, Rustam sifat, bobojon,  
Olib ketay, bergin menga otimni,  
Rahm ayla, yolg'iz edim otadan,  
Olib ketay, bergin menga otimni.

Bu ot menga ko'ngil qo'ygan xonazod,  
Shu bo'lsa har nechuk men g'amdan ozod,  
Seni bir jo'mard deb doim qilay yod,  
Olib ketay, bergin menga otimni.

Bir yil bo'ldi sargardon bo'p izladim,  
Oyri vaqlarda bag'rim tuzladim,

Gohilarda bo'taday bo'p bo'zladim,  
Olib ketay, bergin menga otimni.


Barakalla, qoyil bo'ldim kuchingga,  
Bilmam nechuk o'ylaring bor ichingda,  
Bobo, qoyil bo'ldim sening kuchingga,  
Olib ketay, bergin menga otimni.

Go'ro'g'libek tog'ma-tog' sarson bo'lmasin,  
Bunday sovuqlarda kechga qolmasin,  
Kech salqinga qolib tumov chalmasin,  
Olib ketay, bergin menga otimni.

Boboy Go'ro'g'libekka: "Ha, hali ham otga kashalsanmi? Endi jo'nab keta ber. Baribir senga endi ot yo'q", — dedi. Go'ro'g'libek juda ma'yus bo'lib yaltillab, goh G'irotga, goh chol boboga qaray berdi. Keyin boboy Go'ro'g'libekka: "Hay bo'lmasa, juda shu otni meniki deyberding. Endi mening bilan qoziga yur. Qozi otni kimga hukm qilsa, otni o'sha olsin", — deb G'irotni yetaklab, bir kamarga burila berdi. Go'ro'g'libek ko'nglida: "Shu yaqinda qozixona ham bor ekan", — deb chol boboyning orqasidan ergashib keta berdi.

Chol boboy shunday burilib, bir g'orga kirib ketdi. Go'ro'g'li ham chol boboyning orqasidan: "Assalomu alaykum", deb kirib bordi. Qarasa, ichkarida o'tinxona, obxona, bir yog'ida borxonona, bir yog'ida olovxonona. Naryog'ida xonaqoh, beri yog'ida ayvoncha, ayvonchada G'irotni bog'log'lik turibdi. Bir qalandar sifat odam chiqib, Go'ro'g'libek bilan salomlashib, ko'rishib, olovxonona ergashtirib kirdi. Qarasa, o'rtada gulxan, endi o'chib, cho'q bo'libdi. Cho'qdan olib-solib, to'rtida sandalga isinib to'rtta kishi o'tiribdi. Gulxan atrofida bo'lsa, qirq kishi, bir katta qozon temir o'choqning ustida biqtirilib turibdi. Go'ro'g'libek shoshib qoldi. Qirq kishi Go'ro'g'libekni sandaldagi to'rt kishining oldiga o'tirg'izdi. Shunda haligi to'rt odamning birovi: "Qani, Go'ro'g'li, marhamat qil. Ammo bilginki, bu yer chilton, G'ovsul-G'iyoslarning joyi. Sen shu ot sabab bo'lib bu yerga kelib qolding. Endi bu yerdan quruq ketma. Uch martaba so'raymiz, qani ayt. Ot tilaysanmi, zot tilaysanmi?" — dedilar. Go'ro'g'libek: "Ot", — dedi. Yana: "Ot tilaysanmi, zot tilaysanmi?" — dedilar. Go'ro'g'libek: "Ot", — dedi. Uchinchi martaba yana: "Ot tilaysanmi, zot?" — dedilar. Yana Go'ro'g'libek: "Ot", — dedi. Keyin G'ovsul-G'iyos: "Bo'lmasa,

bizlar senga uch narsa qo‘shib beramiz. Birinchidan, o‘z tilaganing shu G‘irko‘k oting bo‘lsin, o‘zing bilan teng umrlik bo‘lsin. Ikkinchidan, umring ziyoda bo‘lsin — yoshing bir yuz yigirmaga yetsin. Uchinchidan, Yunus, Misqol parilar yoring, Chambil shahring bo‘lsin. To‘rtinchidan, har qanday yarador bo‘lsang, yulduzlarni ko‘rib tuzalib ketadigan bo‘lgin, omin”, — dedilar. Go‘ro‘g‘libek: “Endi G‘irko‘k otimni bersa, bu yerdan ketsam”, — deb o‘ylagan edi. G‘ovsul-G‘iyos: “Oqshom bo‘lib qoldi. Endi sen bu yerda mehmon bo‘lib yot. Erta bilan ketasan. Endi hech narsani o‘ylama, qo‘rqma. Har pilla o‘t o‘zingniki”, — deb chiltonlarga buyurib, Go‘ro‘g‘libekning oldiga bir toboq qovurdoq qo‘ydilar. Go‘ro‘g‘libek qovurdoqni yeb olib, shu kech chilton, G‘ovsul-G‘iyoslarga mehmon bo‘lib qoldi. Oqshom tushida G‘ovsul-G‘iyos Go‘ro‘g‘libekka bir siyirma qilich bergan emish. Endi Xudoning besh vaqt namoz qarzini sen ham har kuni berib tur, dermish. Erta bilan uyg‘onib qarasa, qilich qo‘lida, G‘irko‘k oti bir do‘lonaga bog‘log‘lik, o‘zi shunday do‘lonaga suyanib uxlabdi'. Darrov o‘rnidan turib, G‘irotiga minib, Yovmitga qaytdi.



---

<sup>1</sup> Baxshining aytishicha, yana bir rivoyatda g‘orda hammasi ko‘k, bir tusli qirq ot bor edi. “Shularning ichidan otingni tanib ol”, — dedi. Go‘ro‘g‘libek G‘irko‘kni tanib oldi.